

**ZAMONAVIY YOSHLARNING MA'NAVIY MADANIYATINI  
SHAKLLANTIRISH MASLALARI**

*FarDU talabasi  
Sherqo'ziyeva Zarnigor Farhodjon qizi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada, ma'naviy madaniyat haqida hamda madaniyatning shakllarini bolada qanday qilib shakllantirish hamda zamonaviy yoshlarning madaniyatini keng ko'lama shakllantirish masalalari haqida keng ma'lumotlar berilub o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Yangi O'zbekiston, ma'naviyat, mafkura, ma'rifat, ta'lim, tarbiya, ilm, vatanga sadoqat, tadbirkorlik, mehr-oqibatlilik, ma'suliylilik, tolerantlik, huquqiy madaniyat,

Hozirgi vaqtida mamlakatimizning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish, odamlarning dunyoqarashini o'zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o'zi taqozo etmoqda. Respublikamizda ta'lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan chamcharchas bog'langan bo'lishi muhim ahamiyat berilmoqda. Bunda mutaxassisn kadrlarni tayyorlash, ta'lim va tarbiya berish tizimi islohotlar talablari bilan chambarchas bog'langan bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga dunyo miqyosida shunday o'zgarishlar sodir bo'lmoqdaki, ushbu o'zgarishlar butun boshli xalqni, millatni, elatlarni boringki, butun insoniyatning hayotini o'zgartirib yubormoqda. Ushbu o'zgarishlar jarayonida axloqiy madaniyat va axloqiy munosabatlarning o'rni juda katta hisoblanadi. Bularning barchasiga ta'lim tizimida olib boriladigan sifatli ta'lim-tarbiya orqali erishiladi.

Milliy g'oyani yoshlar ongiga singdirishdan asosiy maqsad, ularni ona Vatan oldidagi burchi, o'z taqdiri uchun mas'ul ekanligi, mahalla, mehnat jamoasi, oila va yaqin kishilarini hayoti uchun javobgarlik hissini tarbiyalashdan iborat. Oila ta'lim tarbiya maskani bo'lib, milliy g'oya va ma'naviyatni yoshlar ongi va qalbiga singdirish aynan oiladan boshlanadi. Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi va bu jarayon yuksak ma'naviyatlilikni talab etadi. Mustaqillik yoshlari kamolotida yangicha talablari ham qo'ydi. Har qachongidan ko'ra ko'proq ichki va tashqi go'zallikning axloq bilan birlashuviga ahamiyat kuchaydi. Yoshlardagi faqat tashqi ko'rinish estetik madaniyatning yaxshi bo'lishiga olib kelmasligi, balki ulardan axloqdan pokiza, ma'naviy dunyosi boy, saxovatli, iymonli, muomala madaniyati yuksak bo'lishi kabi umuminsoniy axloqiy qadriyatlar talab etila bohlandi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab ma'naviy sohalarda ham islohotlar olib borish zaruriyati nazarda tutildi. "Biz uchun, degan edi O'zbekiston

Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimov, “...ma’naviy, tarixiy va madaniy qadriyatlar, aholining ma’naviy, axloqiy holati, yosh avlodni tarbiyalash eng asosiy ustuvor vazifa bo‘lishi lozim”. Binobarin sog’lom avlod tarbiyasi faqat jismoniy jihatdan chiniqqan, kamol topgan yoshlarnigina emas, shuningdek sharqona axloqodob va umumbashariy va ma’naviy qadriyatlar asosida kamol topgan insonni ham nazarda tutmog’i lozim. Zero buyuk alloma Abdulla Avloniy aytganidek: “tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo saodat, yo falokat masalasidir” Hayotga ongli munosabatda bo‘ladigan, mustaqillik g’oyalari va maqsadlaridan faxrlanadigan inson turmushi va faoliyatida estetik zavq, ulug’ vorlik shakllanadi va taraqqiy etadi. Shuning uchun O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, islohotlarni keng ko‘lamda ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy jabhalarda avj oldirib yuborgan ekan, bu islohotlar negizini uch ming yillik davlatchilik tariximiz, ma’naviy merosimiz va milliy mentalitetimiz xususiyatlari tashkil qildi va uni og’ishmay amalga oshira boshladi. Ana shu maqsad yo‘lida ta’lim va madaniyat sohalarida, aqliy va ma’naviy salohiyatlarni mustahkamlash bo‘yicha bosqichma-bosqich islohotlar rejalashtirildi va hayotga tadbiq etildi.

Yoshlarning axloqiy tarbiyasini rivojlantirish va axloqiy jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllantirish bizning oldimizdagi dolzarb vazifa hisoblanadi. Axloqiy tarbiya shaxsning jamiyat axloqiy tajribalarini egallashi va bu tajribalardan boshqa odamlar bilan bo‘lgan munosabatlarida foydalanishi, o‘z – o‘zini muntazam takomillashtirib borishi singari jihatlarni o‘z ichiga oladi. Demak, axloqiy tarbiya masalasiga e’tibor berishimiz va uning elementlarini aniqlab olishimiz muhimdir. Axloqiy jihatdan yetuk tarbiyalangan shaxs axloqiy madaniyatga ham ega bo‘ladi. Axloqiy madaniyat axloqiy hayotning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish va kishilarni tarbiyalash maqsadidagi ishlov berib yaratilgan qismi bo‘lib, u axloqiy hayotning substansiysi, ya’ni asosi hisoblanadi. Axloqiy madaniyatni substansiya sifatida tashkil etuvchi substansional elementlar, birinchidan, axloqiy madaniyat sifatidagi inson, ikkinchidan, insonlarning axloqiy extiyojlari, uchinchidan, axloqiy ehtiyojlarni anglash zaruriyatidan kelib chiqadigan va axloqiy maqsad, reja kabilarni o‘z ichiga olgan – axloqiy ong, to‘rtinchidan, insonning yaratuvchilik faoliyatining bir ko‘rinishi axloqiy anglash negizada va u bilan parallel ravishda amalga oshadigan – axloqiy ijodkorlik, beshinchidan, axloqiy ijodkorlik natijalari bo‘lgan o‘gitlar, yurish – turish odoblari, axloqiy urf – odat va muassasalar, oltinchidan, axloqiy ijodkorlik natijalarining hayotda foydalanishidan iborat. Ularning bir butunligidan axloqiy turmush tarzi, individual axloqiy munosabatlar, axloqiy tendensiyalar va xulq shakllanadi. Demak, axloqiy madaniyatning yuqorida ko‘rsatilgan sistema tashkil etuvchi oltita komponentlari axloqiy hayotning yadroviy, ya’ni markaziy qismini tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev tabiri bilan aytganda, “Biz uchun o‘zdolzarbligi va ahamiyatini

yo‘qotmaydigan yana bir masala, bu farzandlarimizni mustaqil fikri, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan, mustaqil hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash vazifasidir” Demak, vatanparvarlik axloqiylik tamaddunlaridan biri hisoblanadi. Axloqiylik esa insonlarning ijtimoiy madaniy qismi tarkibiga kiradi. Axloqiy tarbiya va axloqiy madaniyat mohiyatan jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy taraqqiyotida namoyon bo‘ladi. Axloqiy madaniyatning bosh maqsadi esa insonni haqiqatga olib borish, uni komil shaxs sifatida tarbiyalash masalasidir. Shu asnoda axloqiy madaniyat ijtimoiy hayot bilan bevosita munosabatga kirishadi. Axloqiy madaniyatni rivojlantirish bu sohada dunyo xalqlari to‘plagan tajribalarini o‘rganish va ijtimoiy hayotga tadbiq etish dolzarblik kasb etadi. Ma’naviyat, milliy qadriyatlar va istiqlol g’oyalari alohida olingan har bir shaxs hayotida ham, jamiyatdagi turli guruh va qatlamlar faoliyatida ham, umuman insoniyat taraqqiyotida ham katta ahamiyatga ega. O‘zbek xalqi jahon madaniyati xazinasiga munosib hissa qo‘sghan millatlar qatoridan faxrli o‘rinni egallaydi. Madaniy yodgorliklar, me’morchilik san’ati namunalari, qadimiy qo‘lyozmalar-milliy ma’naviyatning bebahो durdonalari, xalqimiz uchun eng qadrli va muqaddas bo‘lgan boyliklardir. Ularni avaylab asrash kelajak avlodga yetkazish ma’naviyat sohasidagi eng dolzarb vazifadir. Milliy ma’naviy qadriyatlar tizimida axloqiy sifat, diniy qadriyatlarga munosib o‘rin egallaydi va milliy o‘zlikni anglashning muhim sharti, omili sifatida namoyon bo‘ladi. Axloqiy va diniy qadriyatlar askari hollarda o‘zaro bog’liq bo‘lib, yosh avlod tarbiyasida birdek muhim ahamiyatga ega. Har bir xalq, millat yaratgan ma’naviy qadriyatlar, uning dunyoga qarashi va hayotga munosabati, o‘ziga xos betakror xususiyatlari, ayniqla, urf-odat va marosimlarda to‘laqonli namoyon bo‘ladi. Marosimchilik bir qator ijtimoiy funksiyalarini bajaradi., milliy o‘zlikni saqlashda, yoshlarni tarbiyalashda, muayyan g’oyalarni ruhiyatga singdirishda katta ahamiyat kasb etadi. Tarbiya va ta’limning milliy xususiyatlari ham ma’naviy qadriyatlar tizimida o‘z o‘rniga ega. Xalqning kelajagi yoshlarga bog’liq ekanligi qanchalik haqiqat bo‘lsa, ularni milliy ruhni tarbiyalash zarurati ham umume’tirof etilgandir. Milliy tarbiya xalqning o‘z-o‘zini saqlash va istiqbolini ta’minlash omilidir. Barkamol avlod tarbiyasida milliy qadriyatlarimizning o‘rni juda katta. O‘zbek xalqining yoshlari milliy g’oya, qadriyatlar bilan yo‘g’rilgan tarbiyani olishi kerak.

Axloqiy tarbiya uchun ijobiy axloqiy tajriba hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, uni to‘plash uchun bolalarning muloqoti va birlashtirish faoliyati alohida ahamiyatga ega. Ammo tajriba faqat xatti-harakat yuqori maqsadlar uchun amalga oshirilganda maqsadga olib keladi. Axloqiy tarbiya - axloqiy ongni shakllantirish, axloqiy tuyg’ularni rivojlantirish va axloqiy xulq-atvor ko‘nikmalari va odatlarini rivojlantirishning maqsadli ikki tomonlama jarayoni. U axloqiy ongni shakllantirish, axloqiy tuyg’ularni tarbiyalash va rivojlantirish, axloqiy xulq-atvor ko‘nikmalari va odatlarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Agar inson o‘z harakatini taroziga solib,

o‘ylab ko‘rsa, masalani bilgan holda ish tutsa, o‘zi oldida turgan muammoni hal qilish yo‘lini to‘g’ri tanlasa, xulq axloqiy hisoblanadi. Shaxsning axloqiy xulq-atvori quyidagi ketma-ketlikka ega: hayotiy vaziyat - u tomonidan yaratilgan axloqiy va hissiy tajriba - vaziyatni axloqiy tushunish, xatti-harakatlar, tanlov va qaror qabul qilish motivlari - irodaviy rag’batlantirish - harakat. Axloqiy tarbiya o‘z vazifasi sifatida o‘ziga, boshqa odamlarga, jamiyatga nisbatan burch, mas’uliyat hissini shakllantirishdan iborat. Vatan. Bu fazilatlar odamlarda faqat o‘z mehnati, har bir insonning, birinchi navbatda, o‘ziga nisbatan sabr-toqati evaziga paydo bo‘ladi. Axloqiy shaxsni axloq me’yorlari, qoidalari va talablari o‘z qarashlari va e’tiqodlari, xatti-harakatlarning odatiy shakllari sifatida namoyon bo‘ladigan shaxs deb hisoblash mumkin.

**Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki**, axloqiy tarbiya va axloqiy madaniyat mohiyatan jamiyatning ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy taraqqiyotida namoyon bo‘ladi. Axloqiy madaniyatning bosh maqsadi esa insonni haqiqatga olib borish, uni komil shaxs sifatida tarbiyalash masalasidir. Shu asnoda axloqiy madaniyat ijtimoiy hayot bilan bevosita munosabatga kirishadi. Axloqiy madaniyatni rivojlantirish bu sohada dunyo xalqlari to‘plagan tajribalarini o‘rganish va ijtimoiy hayotga tadbiq etish dolzarblik kasb etadi. Yoshlarni axloqiy madaniyatini shakllantrish va axloqiy tarbiya bo‘yicha asosiy tadbirlarni oila va mehnat jamoalarida, xususan bolalar bog’chasi va umumiy o‘rtta maktablarida yuksak darajada amalga oshirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Bu bilan muayyan darajada individ qamrab olinadi: har holda individning axloqiy qiyofasini yuksaltirish jamiyat talablari darajasida amalga oshadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoev SH.M. Yangi O‘zbekiston – taraqqiyot strategiyasi. –Toshkent: O‘zbekiston,2022.B.440.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz.-T.,,,O’zbekiston”-2007y,295-297-b.
3. Boysunov J. O‘zbekistonda yoshlar ma’naviy madaniyatini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy muammolari. – Buxoro, 2023. – B.49.
4. Vol. 6 No. 5 (2023): JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH
5. Том 1 № 10 (2023): International scientific journal “Interpretation and researches” №10
6. Том 1 № 6 (2023): БЮЛЛЕТЕНЬ ПЕДАГОГОВ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА
7. Vol. 2 No. 5 (2023): Innovative Development in Educational Activities (IDEA)
8. Sherqo‘ziyeva, Z. (2023). YOSH AVLODNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH MASALALARI. *Interpretation and researches*, 1(10).

9. Axmedov, A. Y. (2023). STUDYING THE PROBLEM OF DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE IN FUTURE PSYCHOLOGISTS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(5), 389-394.
10. Yusufovich, A. A., & Alisher o'g'li, E. O. (2022). PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES FOR THE FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(6), 1157-1161.